

Qosimov Bahrombek Ulug'bekovich

Mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inson kapitali va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Inson kapitali, qobiliyat, investitsiya, bilim, capital, daromad, biznes, texnologiya, jamiyat.*

Inson va uning qobiliyatlari, bilim, malakasi har qanday jamiyat farovonligi va davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylangan bugungi kunda O'zbekistonda ham inson kapitali, shubhasiz, ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki inson kapitalini rivojlantirish — innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar va biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi. Inson kapitali (ing. human capital) — bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilimlar, ko'nikmalar to'plami. Inson potensialini tashkil etuvchi turli xususiyatlar ichida, inson kapitali aynan daromadlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarni ifodalaydi, shu jihatdan inson kapitali ishchining maxsus ta'lim, kasb-hunarga tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasi asosida to'plangan bilimlari, ularni amalda qo'llashi va mahoratini o'z ichiga oladi.

Inson kapitalini rivojlantirish – bir kunlik ish emas. Mazkur missiya kompleks yondashuv hamda uzoq muddatli, muhimi, aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni talab qiladi.

Inson kapitali – bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilim, ko'nikma va malakalar yo'g'indisidir. Bu atama birinchi marta 1958 yilda amerikalik iqtisodchi Jeykob Minser tomonidan qo'llanilgan, so'ngra 1961 yilda Teodor Shults va 1964 yildan boshlab Gari Bekker inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini asoslab, ushbu g'oyalarni inson xatti-harakatlariga iqtisodiy yondashuvni shakllantirgan holda ishlab chiqdilar. Masalan, G.Bekker fikricha, “inson kapitali” – bu tug'ma qobiliyatlar va olingan bilim, ko'nikma va motivatsiyalar to'plami bo'lib, ulardan (korxonada yoki jamiyatning shaxsi darajasida) to'g'ri foydalanish natijasida daromadni oshirishga erishiladi [3]. “Inson kapitali” har bir aniq shaxs tomonidan shakllantiriladi va u tirik inson shaxsiyatidan ajralmasdir. Ko'rinib turibdiki, dastlab, inson kapitali deganda, faqat insonga va uning mehnat qobiliyatiga xos bo'lgan – ta'lim va kasbiy mahoratni oshiradigan sarmoyalar yig'indisi tushunilgan. Hozirgi davrga kelib esa, inson kapitali tushunchasiga e'tibor yanada kuchaydi va ushbu kontseptsiyani rivojlantirishga jiddiy urg'u berilmoqda. Inson kapitali barcha faoliyat turlarida mehnat sifati va unumdorligini oshirishga yordam

beradi. Bilimli va tajribali mutaxassislar mehnat unumdorligi va samaradorligini belgilaydi. Mehnat samaradorligida esa bilim, sifatli mehnat, mutaxassislarning malakasi, tajribasi hal qiluvchi o'rin tutadi.

Global dunyoda raqobatlashish ummonda suzishdek gap. Cho'kib ketmaslik uchun kuch, shiddat va mahorat talab qilinadi. Xuddi shu kabi bugungi kunda har qaysi mamlakat, avvalo, inson kapitalini yuksaltirishga, ya'ni millatning intellektual salohiyatini oshirishga harakat qilmoqda.

O'zbekiston aholisining 60 foizi yoshlardan iborat, teng yarmini esa ayollar tashkil qiladi. ekspertlar tahliliga ko'ra, 2048 yilga borib yurtimizda mehnatga layoqatli aholi soni hozirgidan ancha ko'payadi. Natijada mamlakat qimmatbaho demografik dividendni qo'lga kiritishi mumkin. Hamma gap bu unikal imkoniyatdan nechog'li unumli foydalana olishimizda.

Demografik dividend iqtisodiy foyda ko'rinishida o'zimizga qaytishi uchun aholining asosiy tarkibi – yoshlar va ayollarni qo'llab-quvvatlash ayni muddao. Boshqacha aytganda, hukumat inson kapitaliga katta hajmda investitsiya kiritishi zarur. Bu kelajakda nafaqat iqtisodiyotni yuksaltirish, balki ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish — kambag'allik va salohiyatli kadrlar migratsiyasini qisqartirish, ishsizlikni bartaraf etish, xalqning turmush darajasini oshirish imkonini beradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitaliga investitsiyalar mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida ko'riladi. Inson kapitali sifatini yaxshilash, butun hayot faoliyati davomida uzluksiz ta'lim asosida insonlarning kasbiy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirib borishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida amalga oshirishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida nisbat o'zgarayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Jahon banki dunyoning "141 ta davlat misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining uning umumiy qiymatidagi ulushi 64 %ni tashkil etishi va so'nggi 20 yil davomida uning hajmi 55 % ga o'sgani ma'lum bo'lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 %ni tashkil etgan bo'lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41 %ga to'g'ri keldi" (Lange, Glenn-Marie and other, 2018). Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, "mamlakatlar o'rtasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 % aynan inson kapitali bilan izohlanishi" (World Bank Group, 2018) ma'lum bo'lmoqda. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy o'sish omillari o'zgarmoqda. An'anaviy omillar (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) kabi omillar o'rniga fan va ta'lim, ya'ni umumlashtirib aytilganda millatning intellekti bo'lgan omillar birinchi o'ringa

chiqmoqda. O‘zbekistonda milliy boylik tarkibida inson kapitali ko‘rsatkichining ulushi 62 % ni tashkil qilgani holda, jahon banki mutaxassislarining fikriga ko‘ra dunyo mamlakatlari bo‘yicha milliy boylik tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o‘rtacha 16 % ni, tabiiy kapital - 20 % ni, inson kapitali - 64 % ni tashkil etadi (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy boylik tarkibida inson kapitali ulushi 80% ga yetadi).

Mamlakatimizda innovatsion rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan samarali islohotlar o‘z natijasini berib, 2020-yil uchun inson kapitali indeksiga O‘zbekistondagi sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohasiga oid ma‘lumotlar ham kiritildi. Ushbu tadqiqotlarda ilk marotaba ishtirok etgan O‘zbekiston 0,62 koeffitsient bilan MDH mamlakatlari ichida Belarus Respublikasi (0,7), Rossiya (0,68) va Qozog‘iston (0,63)dan keyingi o‘ringa joylashgan.

Darhaqiqat, keyingi yillarda O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash va xalqqa munosib turmush tarzini yaratib berishga kun tartibidagi asosiy masala sifatida qaralmoqda.

Fikrimizcha, inson kapitali hozirgi davr milliy iqtisodiyot taraqqiyotida innovatsion jarayonlarni tadbiiq etishning asosiy omilidir. Qolaversa, inson kapitali – raqamli tsivilizatsiyani rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib, ijtimoiy-texnologik infratuzilmalarni faollashuviga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida milliy iqtisodiyotni, shuningdek, jahon iqtisodiyotini jadal rivojlanishini ta‘minlashga olib keladi. Chunki inson kapitali aholi sifatini tavsiflaydi. Shu bilan birga, inson kapitalining takomillashuvi tobora inson salohiyatini oshishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida 52-maqсад sifatida: “Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish” - belgilab berilishining o‘zaroq, innovatsion iqtisodiyotni qaror toptirish masalasi milliy iqtisodiyot uchun naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Inson kapitali insonlar o‘z hayoti davomida jamg‘aradigan bilim, ko‘nikma va salomatlik darajasidan tashkil topadi. Insonlarning salomatlik va ta‘lim darajasi inson uchun shubhasiz muhim qiymatga ega bo‘lgani holda, inson kapitali esa ularga jamiyatning faol a‘zosi sifatida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Fuqarolarning yuqori ish haqi, mamlakatda aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi milliy daromad darajasi, jamiyat a‘zolarining ijtimoiy va iqtisodiy faollik darajasi ko‘p jihatdan inson kapitali sifatining yaxshilanishiga bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida

barqaror rivojlanish va kambag'allikni kamaytirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduvoxidov, A., & Kamilova, S. (2023). INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 5–14. Retrieved from <https://eitt.uz/index.php/eitt/article/view/39>
2. Aghion P., Meghir C. (2004). Growth, distance to frontier and consumption of human capital. The Institute for Fiscal Studies, WP04/31, 1—50.
3. Хаджалова Х. М. Человеческий капитал современной семьи // Креативная экономика. – 2014. – №11 (95). – С. 62–72.
4. Содиржонов М. М. Инновацион таракқиёт йўлида инсон капиталини ривожланиш жараёнларини оптималлаштириш имкониятлари // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2020. – №2 (88). – Б. 57.
5. Becker, Gary. (1962) Investment In Human Capital. A. Theoretical Analysis // Journal of Political Economy, Vol. 70 (5, Part 2, Supplyment). Pp.9-49
6. Содиржонов, М. "Инсон капитали ривожини шахсинг онги, билими, ахлоқодоби, дунёкарашига боғлиқ." "Янги Ўзбекистон" газетаси 10 (2022).